

O‘ZBEK KURASHI BO‘YICHA BO‘LAJAK O‘QITUVCHI- MURABBIYLARNING KASBIY KOMPETENSIYASINI SHAKLLANTIRISH

**Turon Zarmed universiteti “Maktabgacha talim va sport” kafedrası
o‘qituvchisi Dilmurod Safarov Zoir o‘g‘li**

Tayanch atamalar: kurash, milliy kurash, sport, sport turi, texnika, taktika, texnologiya, o‘zbek kurashi.

Annotatsiya: Mazkur maqolada o‘zbek milliy kurashi, rivojlanish tarixi, shakllanish jarayonlari, nazariy asoslari, shuningdek milliy kurashning boshqa kurashlar bilan o‘xshashligi, sport turlari tizimida tutgan o‘rni, texnikasi hamda taktikasi, o‘rgatishning pedagogik texnologiyalari xususida fikr yuritiladi.

Ключевые слова: борьба, национальная борьба, вид спорта, вид спорта, техника, тактика, техника, узбекская борьба.

Аннотация: В данной статье рассматривается узбекская национальная борьба, история развития, процессы становления, теоретические основы, а также сходство национальной борьбы с другими видами борьбы, ее место в системе видов спорта, приемы и тактика, педагогические технологии обучения.

Key words: wrestling, national wrestling, sport, sport, technique, tactics, technology, Uzbek wrestling.

Abstract: This article discusses the Uzbek national wrestling, history of development, formation processes, theoretical foundations, as well as similarities of national wrestling with other wrestling, its place in the system of sports, techniques and tactics, pedagogical technologies of teaching.

Bugungi yosh avlodni voyaga yetkazish, uni barkamol inson qilib tarbiyalash, jismoniy sifatlarini rivojlantirish, salomatligini mustahkamlash, keyingi faoliyat samaradorligini oshirish, ruhiy – ma‘naviy salohiyatini yuksaltirishda sport va jismoniy tarbiyaning ahamiyati ortib borayotganligi alohida ahamiyat kasb etmoqda.

Zero, jismonan baquvvat, ruhan tetik, maʼnan barkamol avlod kelajak poydevori, ilmiy – texnik taraqqiyotning tayanchidir.

Oʻzbek xalqining anʼanaviy sport turlaridan biri boʻlmish kurash uch yarim ming yillik tarixga ega. Kurash oʻzbekcha soʻz boʻlib, u qator qadimiy sharq adabiy manbalarida yakkama-yakka olishuv va ijtimoiy koʻngilochar sport turi sifatida tilga olingan.

Oʻtmishda ajdodlarimiz milliy udum va urf-odat sifatida toʻy-hashamlarda, bayramlarda, katta maʼrakalarda va hatto davlatlar, hukmronlar oʻrtasiga nizo tushgan paytlarda ham kurash tushishgan. Ikki raqib polvonlari oʻrtaga chiqib kurash tushishgan va nizo, qirgʻinbarotsiz, urushsiz, qon toʻkishsiz hal etilgan. Chunki xalq oʻz polvonining mardligiga adolatli ekanligiga, halolligiga ishonishgan va ularga tayanib ish tutishgan. Bu va shunga oʻxshash masalalarni kengroq va chuqurroq tahlil qilish, Amir Temur, Pahlavon Mahmud, Zahiriddin Muhammad Bobur, Jaloliddin Manguberdi, Husayn Boyqaro kabi sarkarda va amirlarning kurash oʻyiniga boʻlgan behad hurmatlarini bilib olishda —Jismoniy madaniyat tarixi va boshqarish fanidagi maʼlumotlarga tayanadilar. Mazkur fanni oʻrganish jarayonida mamlakatimiz va chet ellarda xalqaro sport harakatlari qatorida kurash turlari ning rivojlanishi, Oʻzbekiston kurashchilari va sportchilarining Osiyo, jahon va Olimpiya oʻyinlarida ishtiroklarini bilib olish imkoniyati yaratiladi. Sportchini, murabbiyni va tashkilotni iqtisodiy-huquqiy statusi, jismoniy madaniyati va kurash sohasida mutaxassislarni tayyorlash istiqbollari, uzoqqa moʻljallangan maqsad va vazifalar tarzida muayyan sportchi-kurashchilar manfaatlarini himoya qilishning nazariy asosi sifatida qaraladi.

Oʻzbek kurashining eng ardoqli anʼanalari va maxsus kiyim bosh, musobaqalarni oʻtkazish joyi va bellashuvning davom etish muddati kabi xalqaro sport meʼyorlarini oʻzida mujassam etdi. Sport mutaxassislari Komil Yusupov tomonidan ishlab chiqilgan kurash qoidalari toʻlaligicha xalqaro sport talablariga javob berishini eʼtirof etdilar. Kurash qoidalarining asosiy afzalliklaridan biri shundaki, ular yotgan holda bellashuvni davom ettirilishiga yoʻl qoʻymaydi. Darhaqiqat, asrlar silsilasidan, davrlarning murakkab sinovlaridan mardona oʻtgan,

chinakam mardlar, munosib raqiblar bahsi boʻlgan oʻzbek milliy kurashi mustaqillik yillarida hayotbaxsh ruh kasb etib keng jahon boʻylab quloch yoyganligi bayramlar, sayllar, turli mahaldagi musobaqalar, Olimpiya oʻyinlarida, yana arenalarda paydo boʻlganligi haqidagi maʼlumotlar, mazkur fan orqali talabalar diqqatiga havola etiladi.

Oʻzbek xalqining qadimgi qadriyati, faxri, gʻururi boʻlgan oʻzbek kurashi boʻyicha tuzilgan —Xalqaro Kurash Assotsatsiyasini qoʻllabquvvatlash toʻgʻrisidagi Respublika Prezidentining farmoni qabul qilingandan soʻng (fevral, 1999-yil) Respublikada milliy kurashga eʼtibor kuchaytirildi.

Respublika taʼlim muassasalari umumiy oʻrta, oʻrta maxsus va kasb-hunar taʼlimi, oliy taʼlim maktablarida kurash boʻyicha mashgʻulotlar oʻtkazila boshlandi, seksiyalar tashkil qilindi, turli mavqedagi turnirlar oʻtkazilmoqda. Bu esa oliy taʼlim maktablarida oʻqitiladigan —Milliy kurash turlari va uni oʻqitish metodikasi fanini oʻqitishni yanada takomillashtirish, uni oʻrganishning samaradorligini oshirish yoʻllarini, qonunlarini, texnologiyalarini ishlab chiqishni taqozo etadi. Bu esa Oʻzbek kurashi boʻyicha boʻlajak oʻqituvchi-murabbiylarning kasbiy kompetensiyasini shakllantirishni talab etmoqda. Mavzumizning dolzarbligi milliy kurashni oʻquvchi-yoshlarga oʻrgatishni va keng jamoatchilikka tadbiq etishni taklif etadi.

Hozirgi kunda taʼlim maqsadini amalga oshirish taʼlim funktsiyalari, muammoli-modulli xususiyatlari, oʻqitish vositalari va taʼlim mazmunini amalga oshirish darajalari, taʼlimni jadallashtirish va shaxsga yoʻnaltirilgan - umumiy pedagogik, xususiy pedagogik, lokal (modul)li taʼlim kabi oʻqitishning xususiyatlaridan kelib chiqib, A.Ya. Savelev, S.A.Smirnov, M.A.Chashanov, V.P.Bespalko, V.M.Shatalov, E.N.Shiyanov, M.I.Maxmutov, L.A.Yutsyavichene, D.V.Chernilevskiy va boshqalar tomonidan taʼlim texnologiyalari ishlab chiqilgan. Respublikamiz taʼlim muassasalarida esa oʻqitishning muammoli, shaxsga yoʻnaltirilgan, mujassamlashtirilgan, modulli, rivojlantiruvchi, dasturlashtirilgan, differenlashtirilgan, faol, oʻyin kabi texnologiyalari N. Avliyoqulov, N.

Sayidaxmedov, B. Farberman, O'. Tolipov, M. Usmonboyeva, B. Xo'jayev, Sh.Olimov tomonidan ilmiy nazariy jihatdan asoslanib amalda qo'llanilmoqda. Xullas, mazkur texnologiyalar mustaqil fikr yuritish, faol o'zlashtirish, ijodiy tafakkurni shakllantirish va rivojlantirish, kafolatli natijaga erishishni yo'lga qo'yishga yordam beradi. Zero, bunda bilish, tushunish, anglash, ajrata olish, o'z-o'zini nazorat qilish, aniqlashtirish o'z faoliyatini baholash kabi amallar doimiy harakatda bo'ladi.

Xulosa qilib aytganda, milliy kurash, ya'ni o'zbek milliy kurashi va uning rivojlantirishini, mamlakatimiz hayotida emas balki jahonga tanitishga loyiq sport turi ekanligi etirof etish lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Arslonov Q.P. Milliy kurash turlari va uni o'qitish texnologiyalari, Тошкент: —Turon zamin ziyol nashriyoti, 2014. -208 б
2. Atoyev A.Q. Yosh-o'smirlarga o'zbek kurashini o'rgatish uslubiyoti.— T.: O'zDJTI nashriyot- matbaa bo'limi, 2005.
3. Absattorov A.A., Istomin A.A. Dzyudo kurashi, (Fizkultura institutlari talabalari uchun o'quv qo'llanma). -T.: Ibn Sino nomidagi nashriyot-matbaa birlashmasi, 1993.
4. Nurshin J. va boshqalar. O'zbekcha kurash usullari. O'quv qo'llanma.- T.:, 1987. 12. Nurillayev A. —O'zbek kurashi uslubiyotil (O'quv uslubiy qo'llanma)- Navoiy, 2011
5. Исломов Э. Ю., Хамроев Б. Х., Сафаров Д. З. У. Управление воспитанием юного спортсмена во время занятий физическими упражнениями и на тренировке //Вопросы науки и образования. – 2020. – №. 20 (104). – С. 16-19.
6. Сафаров Д. З. Ў., Хамроев Б. Х. ОЛИЙ ТАЪЛИМДА ГИМНАСТИКА ДАРСЛАРИНИ ИННОВАЦИОН ТАЪЛИМ ТЕХНОЛОГИЯЛАР АСОСИДА ЎҚИТИШИ САМАРАДОРЛИГИ //Scientific progress. – 2021. – Т. 1. – №. 6. – С. 297-301.

7. Safarov D. Z. O. G. L., Nazarova N. E., Sadriddinova D. H. Q. Ta'lim muassasalarida jismoniy tarbiya, sport tadbirlarining maqsadi va vazifalari //Scientific progress. – 2021. – T. 2. – №. 1. – С. 1498-1505.
8. Сафаров Д. З. У. Квалификация уровня спортивного, акробатического, аэробного гимнастики //Science and Education. – 2022. – Т. 3. – №. 4. – С. 1025-1031.
9. Сафаров Д. З., Хамроев Б. Х., Мавлонов М. М. ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ТЕХНОЛОГИЙ В ПРОЦЕССЕ ОБУЧЕНИЯ ГИМНАСТИКЕ //Вопросы науки и образования. – 2021. – №. 14 (139). – С. 54-56.
10. Hamroyev B. X., Safarov D. Z. O. G. L. BELBOG 'LI KURASHCHINING FUNKSIONAL QOBILİYATI OSHIRISH YO 'LLARI //Scientific progress. – 2021. – T. 1. – №. 6. – С. 291-296.
11. Ortiqov O. R. GLOBALLASHUV JARAYONIDA BO'LAJAK O'QITUVCHILARDA MAFKURAVIY IMMUNITETNI RIVOJLANTIRISH OMILLARI //Scientific progress. – 2021. – T. 1. – №. 5. – С. 160-165.
12. Ortiqov O. R. MA'NAVIY-MA'RIFIY ISHLAR JARAYONIDA MAFKURAVIY IMMUNITETNI RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYALARI (OLIY TA'LIM MUSSASALARI MISOLIDA) //Экономика и социум. – 2022. – №. 3-2 (94). – С. 1130-1135.
13. Ortiqov O. R. TALABALAR MA'NAVIY AXLOQIY FAZILATLARINI SHAKLLANTIRISHDA "QOBUSNOMA" ASARIDAN FOYDALANISH //Conferencea. – 2023. – С. 1-5.
14. Ortikov O. R. MUHAMMAD ABU HOMID IMOM G'AZZOLIY ASARLARIDA ILM-MA'RIFAT VA AXLOQ MASALALARI MODERN SCIENTIFIC CHALLENGES AND TRENDS 9 (ISBN 978-83-949403-3-1), 117-122